

## AKADEMIK LITSEYLARDA SO‘Z BIRIKMASI MAVZUSINI O‘QITISH

**Narziyeva Nazokat Abdurasulovna**  
SamDChTI akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada akademik litseylarda o‘zbek tili fanining sintaksis bo‘limini o‘qitishda so‘z birikmasi mavzusining o‘rni, uni o‘qitishning metodik asoslari, samarali ta’lim usullari hamda amaliy mashqlar tizimi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z birikmasi, sintaksis, metodika, akademik litsey, interfaol usullar, til birliklari.

Bugungi kunda akademik litseylarda o‘zbek tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lgan sintaksis, xususan, so‘z birikmasi mavzusi o‘quvchilarning nutqiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli so‘z birikmasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

*Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi **so‘z birikmasi** deyiladi. Ikki va undan ortiq musraqil so‘zning ma’no va grammatik jihatdan birining boshqasiga tobelanib bog‘lanishi so‘z birikmasini hosil qiladi.*

So‘z birikmasida doimo ikkita qism bo‘ladi. Ularning bittasi tobe ikkinchisi esa hokim bo‘ladi.

So‘z birikmasida ma’nosi izohlanayotgan so‘z hokim so‘z, uning ma’nosini ravshanlashtirib kelayotgan, izohlayotgan, to‘ldirayotgan so‘z tobe so‘z hisoblanadi. So‘roq hamma vaqt hokim so‘zga qarab beriladi. so‘roqqa javob bo‘lgan so‘z tobe so‘z hisoblanadi: *shirin olma(qanday olma?)*. Hokim so‘z ot, sifat, son olmosh, ravish bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi: *baland bino, asalday shirin, intizomda birinchi, bolalarning hammasi, menda ko‘p*. Hokim so‘z fe‘lning ravishdosh va harakat nomi shakllarib bilan ifodalansa, **fe‘lli birikma** hisoblanadi: *kitobni o‘qish, ishni bajarib*.


So‘z birikmasi tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) sodd a so‘z birikmasi; 2) murakkab so‘z birikmasi. **Sodd a so‘z birikmasida** mustaqil so‘z ikkitadan ortiq bo‘lmaydi: *beshta **daftar**, bugun **keldi**, o‘zining **uyi**, shaharda **yashaydi**, akasi haqida so‘radi*. **Murakkab so‘z birikmasi** tarkibida ikkitadan ortiq mustaqil so‘z qatnashib, so‘z birikmasi ichida yana so‘z birikmasi bo‘ladi: *g‘ayratli yosh bolalar, yangi ommabop kitob, katta qora qo‘y, asfalt*

yotqizilgan keng ko`chalar, katta mevali daraxt, bugun kelgan ishchilar kabi. Mas., g`ayratli yosh bolalar birikmasida g`ayratli – tobe so`z, yosh bolalar – hokim so`z.

### So`z birikmasida tobe va hokim qismlarni bir-biriga bog`lovchi vositalarning o`rni

Tobe bo`lak hokim bo`lakka ma`lum bog`lovchi vosita yordamida bog`lanadi. Demak, bog`lovchi vosita tobe bo`lak oxiriga qo`shiladi. Bundan faqat egalik qo`shimchasi yordamida bog`langani mustasno. Egalik qo`shimchasi hokim bo`lak oxiriga qo`shiladi. Tobe bo`lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba`zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin.

bo`ladi: kelishik, ko`makchi va ohang tobe qismga, egalik qo`shimchasi esa hokim qismga qo`shiladi. Uni quyidagi sxemada ko`rsatish mumkin:




a) qaratqich kelishigi

b) egalik qo`shimchasi


### So`z birikmasida so`zlarning o`zaro bog`lanish usullari



Tobe so`zning hokim so`z talab qilgan kelishik qo`shimchasini (bosh va qaratqichdan tashqari) yoki ko`makchi bilan kelishi **boshqaruv** deyiladi.



Boshqaruvda hokim va tobe soʻz quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:



Moslashuvda hokim soʻzda egalik qoʻshimchasi boʻlib, u bilan tobe soʻz shaxs va sonda moslashadi.

Hokim soʻz bilan tobe soʻzning shaxs-sonda mosligi **moslashuv** deyiladi.

Moslashuvda tobe soʻz hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻz esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchasi yordamida bogʻlanadi:

## MOSLASHUV

## Tobe so'z

...qaratqich kelishigi  
shaklidagi ot va  
otlashgan so'zlar

## Hokim so'z

...egalik qo'shimchasi  
shaklidagi ot va  
otlashgan so'zlar


mening kitobim  
kitobning varag'i  
vatanimizning mustaqilligi  
ona mehri

So'z birikmalari tarkibida tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi.

Bitishuvda tobelik so'zlarning ma'nosi va tartibidan ma'lum bo'ladi: tiniq suv, katta uy. Bunday birikmalarda so'zlarning o'zni o'zgartirilsa, grammatik tuzilishi ham o'zgaradi: so'z birikmasi emas, gap hosil bo'ladi, masalan:

*tiniq suv... - Suv tiniq.*

**Bitishuvda hokim va tobe so'z quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:**



So‘z birikmasini o‘qitishda quyidagi metodik tamoyillarga amal qilish muhim: Izchillik va tizimlilik — mavzuni oddiydan murakkabga qarab o‘rganish. Nazariya va amaliyot birligi — qoidalarni misollar va mashqlar orqali mustahkamlash. Taqqoslash metodi — so‘z birikmasini gap va qo‘shma so‘z bilan qiyoslash. Nutqiy yo‘naltirilganlik — so‘z birikmalarini real nutq jarayonida qo‘llash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish Akademik litseylarda so‘z birikmasini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Jumladan:

- “Aqliy hujum” metodi orqali so‘z birikmalarini aniqlash;
- klaster usuli yordamida so‘z birikmasi turlarini tizimlashtirish;
- muammoli ta’lim asosida murakkab so‘z birikmalarini tahlil qilish;
- matn bilan ishlash orqali o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish.

Bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirib, til birliklarini ongli o‘zlashtirishiga yordam beradi.

So‘z birikmasini mustahkamlashda amaliy mashqlar muhim o‘rin tutadi. Jumladan:

- berilgan matndan so‘z birikmalarini topish;
- hokim va tobe so‘zni aniqlash;
- so‘z birikmalaridan gap tuzish;
- nutqiy vaziyat asosida so‘z birikmalarini qo‘llash.

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy nutqda qo‘llash malakasini oshiradi.



Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda soʻz birikmasini oʻqitish oʻzbek tilining sintaktik tizimini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodlardan foydalanish, nazariya va amaliyotni uygʻunlashtirish orqali oʻquvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Soʻz birikmasini puxta oʻzlashtirgan oʻquvchi fikrini aniq va mantiqiy ifodalashga erishadi. Akademik litsey bosqichi tilshunoslik bilimlarini chuqurlashtirishda muhim oʻrin tutadi. Soʻz birikmasi mavzusi gapni oʻrganishga tayanch boʻlib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (1-3-qism) . – T.: "Ilm ziyo", 2010.
2. Mengliyev B. va boshqalar. "Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan universal qoʻllanma". – T.: "Yangi asr avlodi", 2010.
3. Qodirov M. va boshqalar. Ona tili (8-sinf uchun darslik) . – T.: "Choʻlpon", 2019.
4. Toʻxliyev B. va boshqalar. – T.: "Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi", 2010.
5. Toʻxliyev B. va boshqalar. "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" darslarida yuksak maʼnaviyatli shaxs tarbiyasi – Toshkent, 2010.